**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

OLIMOV UMRBEK RASHIDOVICH

DISKRET VAQTLI CHEKSIZ O‘LCHAMLI RATSIONAL DINAMIK SISTEMALAR

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT - 2025 yil

UDK: 517.98

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

OLIMOV UMRBEK RASHIDOVICH

DISKRET VAQTLI CHEKSIZ O‘LCHAMLI RATSIONAL DINAMIK SISTEMALAR

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT - 2025 yil

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1050 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (https://kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘ida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rozikov Utkir Abdulloevich** fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**G‘anixo‘jayev Nosir Nabiyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Djalilov Axtam Abduraxmanovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “ 27 ” may kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (202-raqami bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ 13” may kuni tarqatildi.
(2025-yil “ 13 ” maydagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

S.A. Miraxmedov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash rais o‘rinbosari,
f.-m.f.d., professor

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

U.U. Jamilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda cheksiz o‘lchamli ratsional dinamik sistemalarni tadqiq qilish masalalariga keltiriladi. Dinamik sistemalar nazariyasining ahamiyati sistemaning hozirgi holatini bilgan holda kelajakda qanday holatlar kelib chiqishini baholashdan iborat bo‘lib, statistik mexanika, fizika, biologiya, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqa masalalarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa insonlarga murakkab sistemalarni tushunish va optimal qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Ta’kidlash joizki, dinamik sistemalar odatda ayirmali tenglamalar, differensial tenglamalar hamda differensial-ayirmali tenglamalar orqali ifodalanadi. Statistik mexanika va kvant fizikasi sohalaridagi tadqiqotlarning asosiy obyektlaridan biri cheksiz o‘lchamli ratsional operatorlarning dinamikasi hisoblanadi. Shuningdek, cheksiz o‘lchamli ratsional dinamik sistemalar fizikada zarrachalar o‘rtasidagi geometrik ta’sirlarni modellashtirish va tizimlarning termodinamik xususiyatlarini o‘rganishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, cheksiz o‘lchamli ratsional akslantirishlarning dinamikasini tadqiq etish dinamik sistemalar nazariyasidagi muhim va dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi vaqtda cheksiz o‘lchamli ratsional dinamik sistemalar nazariyasi ko‘plab amaliy masalalarning xarakterini tushunishda, tahlil qilishda hamda ratsional yechimini topishda asosiy vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Jumladan, dinamik sistemalar nazariyasi uchun trayektoriyaning limit nuqtalar to‘plamini tavsiflash, qo‘zg‘almas va davriy nuqtalarning mavjudligini hamda ularning turini aniqlash, invariant to‘plamlarni topish, bifurkatsiya sodir bo‘lishini tekshirish, sistemaning regulyar yoki xaotik xarakterga egaligini aniqlash kabi muammolar ko‘plab amaliy masalalarni tahlil qilishda keng qo‘llanilmoqda. Bu borada diskret vaqtli cheksiz o‘lchamli ratsional operatorlar dinamikasi turli sohalarda sistemalarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishini tahlil qilishda maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi. Matematikadan fundamental ilmiy natijalar uchun ta’sis etilgan Fields mukofoti sovrindorlarining yettitasi aynan dinamik sistemalar nazariyasi mutaxasislari ekanligi, sohaning dolzarbligidan dalolatdir.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda fundamental tadqiqotlarni jahonda yetakchi o‘rinlarga chiqarishga katta e’tibor berilayotganligi[1] tufayli diskret vaqtli cheksiz o‘lchamli ratsional operatorlarning dinamikasini o‘rganish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. Xalqaro matematika jamiyati e’tiborida turgan sohalardan biri bo‘lgan dinamik sistemalar nazariyasi bo‘yicha tatqiqotlarni yurtimizda yanada kuchaytirish, jumladan diskret vaqtli cheksiz o‘lchamli ratsional operatorlarning dinamikasini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur dissertatsiya ishida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shu masalalar turkumiga mansub natijalardan hisoblanadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek,O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institute faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-4387-sonli qarori.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustivor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Dinamik sistemalarga oid dastlabki tushunchalar qadimgi yunon olimlari tomonidan kiritilgan boʻlib, unga tabiatdagi harakat va muvozanat qonunlarini oʻrganish natijasida asos solingan. Isaak Nyutonning 1687-yilda chop etilgan “The Mathematical Principles of Natural-Philosophy” asari dinamik sistemalarni oʻrganishda burilish nuqtasi boʻlgan. Nyutonning uchta harakat va gravitatsiya qonunlari dinamik sistemalarning matematik modellarini tuzishga zamin yaratdi. XVIII-XIX asrlarda Leonard Eyler, Pyer-Simon Laplas, Karl Fridrix Gauss, Andrey Lyapunov, Anri Puankare kabi matematiklar dinamik sistemalar nazariyasini yanada chuqurroq rivojlantirdi.

Dinamik sistemalar nazariyasi boʻyicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qancha dolzarb masalalar muvaffaqiyatli hal qilindi. Jumladan, Puankare tomonidan dinamik sistemalarning asimptotik xatti-harakatlarini oʻrganish davomida analitik yechimini topish mumkin boʻlmagan sistemalar uchun holatlar fazosi tushunchasining kiritilishi davriy va deyarli davriy orbitalarni aniqlashda asosiy geometrik gʻoyalarni taqdim etdi. Shuningdek, Andronov-Pontryaginlaring ishida dagʻal tushunchasining kiritilishi esa sistema tuzilishining turgʻunligi uchun zaruriy va yetarli shartlar topilishiga olib keldi. Boshqa tomondan, 60-yillarda Lorenz tomonidan atmosferadagi konveksiyaning soddalashtirilgan modelida boshlangʻich holatga nisbatan yuqori sezuvchanlik borligining kashf etilishi, chekli oʻlchamli fazolarda aniqlangan deterministik sistemalarda ham xaotik xatti-harakatlarning mavjudligini koʻrsatdi. Yana bir muhim ishlardan biri bu Sharkovskiy tomonidan bir oʻlchamli uzluksiz akslantirishlar uchun davriy orbitalar tartibi aniqlanishi boʻldi. Sharkovskiy teoremasiga koʻra akslantirish davri uchga teng orbitaga ega boʻlsa, u holda istalgan davrli davriy orbitalarga ega boʻlishi kelib chiqadi. Bu esa, dinamikaning murakkabligini bildiradi. Bunday hollarda dinamikani ehtimollar nuqtai nazaridan oʻrganish qulay. Ya’ni, sistemaning fizik (makroskopik) xossalarini ifodalovchi ehtimollik o‘lchovlarini qurish va o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday o‘lchovlarga Gibbs o‘lchovlarini misol keltirish mumkinki, u sistemaning mikroskopik (molekulyar dinamika) xossalarini makroskopik xossalari (bosim, temperatura va h.k.) bilan bog‘laydi. Shu sababdan, Gibbs o‘lchovlari statistik fizika va dinamik sistemalarda muhim o‘rin egallaydi. Oxirgi yillarda, gradiyent Gibbs o‘lchovlari keng o‘rganilmoqda. Bu o‘lchovlar, sanoqli spin qiymatlari to‘plamiga ega modellar uchun gradiyent potentsiallar bilan bog‘liq bo‘lgan Gibbs o‘lchovlari bo‘lib, ularni tadqiq etish cheksiz o‘lchamli operatorlarga keltiriladi. Keli daraxtidagi gradiyent potentsiallar bilan bog‘liq gradiyent Gibbs o‘lchovlarini batafsil tahlil etish kvant fizikasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. F.Henning, K.Kulske, A.Le Ny, P.Schriever va o‘zbek matematiklari N.N. G‘anixo‘jayev, U.A.Rozikov, N.M.Xatamov, R.M.Xakimov, F.H.Haydarov, M.T.Maxammadaliyev va boshqalar cheksiz o‘lchamli operatorlarning qo‘zg‘almas va davriy nuqtalarini tadqiq etishga katta hissa qo‘shib kelmoqdalar. Ularning ishlari asosan limit Gibbs o‘lchovlarining tahliliga, davriy Gibbs o‘lchovlariga va Gibbs o‘lchovlarining turli sohalarda, jumladan, biologiya, tibbiyot va iqtisodiyotda qo‘llanishiga qaratilgan. Ular turli modellar uchun Gibbs o‘lchovlar to‘plamining bo‘sh bo‘lmasligi, fazaviy o‘tishlarning mavjudligiga oid usullarni ishlab chiqdilar va rivojlantirdilar.

Hozirda tadqiqotchilar diskret vaqtli dinamik sistemaga ko‘p e’tibor qaratmoqdalar. R.N.G‘anixo‘jayev, U.U.Jamilov, D.B.Eshmamatova va boshqalar Volterra kvadratik stoxastik operatorlari va N.N.G‘anixo‘jayev, U.A.Rozikov, U.U.Jamilov, F.M.Muxamedovlar esa novolterra kvadratik opertorlar dinamikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. U.A.Rozikov va Z.S.Boxonovlarning ishlarida ikki o‘lchamli ratsional funksiyalar dinamikasi qaralgan. N.N.G‘anikhodjaev, U.A.Rozikov, N.M.Xatamov, R.M.Xakimov, F.H.Haydarov, M.T.Maxammadaliyevlar SOS va HC modellari uchun Gibbs o‘lchovi masalasini diskret vaqtli cheksiz o‘lchamli ratsional operatorlariga keltirib, shu operatorning qo‘zg‘almas va davriy nuqtalarini o‘rganishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tekshirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining FA-2021-425 raqamli “Panjarali sistemalarda gradiyent ehtimollik o‘lchovlari” (2021-2025 yy) va “Noassotsiativ algebralar strukturaviy nazariyasi va uning biologik sistemalardagi dinamik sistemalarni tadqiq qilishdagi tatbiqi” (2020-2023 yy) nomli ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi spin qiymatlari natural bo‘lgan *k*-tartibli Keli daraxtida aniqlangan fizik jarayonlarga mos keluvchi cheksiz o‘lchamli diskret vaqtli ratsional operatorning dinamikasi, qo‘zg‘almas nuqtalari va shu nuqtalarga mos keluvchi Gibbs o‘lchovlarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

cheksiz o‘lchamli operatorning yagona qo‘zg‘almas nuqtaga ega bo‘ladigan shartlarni topish;

davriy nuqtalar to‘plamini tavsiflash va invariant to‘plamlarni aniqlash;

cheksiz o‘lchamli va ikki o‘lchamli operatorlar orasida bog‘lanish topish;

ikki o‘lchamli operator dinamikasini taqdiq qilish orqali cheksiz o‘lchamli operator dinamikasini tavsiflash;

spin qiymatlari natural bo‘lgan HC modeli uchun davriy chegaraviy qonunga mos gradiyent va limit Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tadqiq qilish.

Tadqiqot ob’ekti: qisqartirib akslantirish, cheksiz o‘lchamli operatorlarning dinamikasi, Yakobi matritsasi, Gamiltonian, gradiyent Gibbs o‘lchovlari.

Tadqiqot predmeti. Matematik analiz, funksional analiz, nochiziqli diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida matematik analiz, funksional analiz, operatrolar nazariyasi, chiziqli algebra va diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

berilgan cheksiz o‘lchamli operatorning yagona qo‘zg‘almas nuqtaga ega bo‘lishi uchun parametrlarga shart topilgan;

cheksiz o‘lchamli ratsional dinamik sistema ikki o‘lchamli dinamik sistemaga keltirilgan va uning qo‘zg‘almas nuqtalari to‘plami hamda traektoriyalarning limit nuqtalari tavsiflangan;

Keli daraxtida berilgan sanoqli spin qiymatga ega HC modeliga mos translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlari soni yettitagacha bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Olingan natijalar va dissertatsiyada qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlarida magistratura talabalari, tayanch doktorantlar uchun o‘quv kurs sifatida o‘qitilishi mumkin. Shuningdek, u matematik fizika sohasida fazaviy o‘tish muammolarini hal qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarida matematik va funksional analiz usullari, diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasidan foydalanilgan. Olingan natijalar qat’iy matematik mulohazalarga asoslanib isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasi rivojiga hissa qo‘shishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati statistik fizikaning HC modellari uchun faza almashishlari ro‘y beradigan kritik haroratlar mavjudligi ko‘rsatilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Biologiya va fizikada diskret vaqtli cheksiz o‘lchamli ratsional akslantirishlarning dinamik sistemalari bo‘yicha olingan natijalarga asosida:

cheksiz o‘lchamli dinamik sistemalarning limit to‘plamlari haqidagi natijalardan G00003447 raqamli “Kvant genetik algebralari va ularning qo‘llanilishi” mavzusidagi xorijiy loyihasida sanoqli spin qiymatlarga ega HC modeli uchun fazaviy o‘tishlarni tadqiq qilishda foydalanilgan (Birlashgan Arab Amirliklari universitetining 2025 yil 24-martdagi ma’lumotnomasi, BAA). Ilmiy natijani qo‘llanishi sanoqli spin qiymatlarga ega HC modellari uchun termodinamik xususiyatlar va Gibbs o‘lchovlarini to‘plamini tavsiflash, shuningdek, fazalar o‘tishlari mavjudligini aniqlash imkonini bergan;

cheksiz o‘lchamli nochiziqli operatorlar dinamikasini tadqiq qilish va Keli daraxtidagi HC modeliga mos Gibbs o‘lchovlarini tavsiflash metodologiyasidan FRGS21-230-0839 raqamli “Chegaralangan o‘lchovli ortogonal saqlovchi kubik stoxastik operatorlarning dinamikasi” mavzusidagi xorijiy loyihada cheksiz o‘lchamli nochiziqli stoxastik operaotrlarning qo‘zg‘almas nuqtalarini tavsiflashda foydalanilgan (Malaziya xalqaro islom universiteti ma’lumotnomasi, 2025 yil 24 mart, Malaziya). Ilmiy natijani qo‘llanishi ortogonallikni saqlovchi nochiziqli stoxastik operatorlar dinamikasini local ma’noda tavsiflash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 112 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Diskret vaqtli dinamik sistemalar: Asosiy tushunchalar**” deb nomlanuvchi birinchi bobida dissertatsiya mavzusini to‘la yoritish uchun zarur bo‘lgan asosiy ta’riflar va muhim tushunchalar keltirilgan. Shuningdek, ushbu ishga tegishli bo‘lgan ratsional dinamik sistema bo‘yicha so‘ngi natijalarga qisqacha sharh berilgan.

Diskret vaqtli dinamik sistemani aniqlash uchun $f: X \to X, \quad X \subseteq \mathbb{R}$ funksiyani qaraylik. f akslantirishning o‘z-o‘ziga *n* marta kompozitsiyasi $f^n(x)$ kabi belgilanadi, ya’ni

$$f^n(x) = \underbrace{f(f(f...(f}_{n\ marta}(x))...).$$

1-**ta’rif.** *Berilgan* $x_0 \in X$ *va* $f: X \to X$ *diskret vaqtli dinamik sistema uchun*

$$x_0, x_1 = f(x_0), x_2 = f^2(x_0), x_3 = f^3(x_0), \dots \qquad (1)$$

nuqtalar ketma-ketligi x_0 nuqtaning musbat orbitasi yoki musbat trayektoriyasi deyiladi.

2-**ta'rif.** *Agar $x \in X$ nuqta $f(x) = x$ tenglamani qanoatlantirsa, u holda x nuqta $f : X \to X$ akslantirishning qo'zg'almas nuqtasi deyiladi. Agar x nuqta $f^p(x) = x$ tenglamani qanoatlantirsa, u holda x nuqta f funksiyaning p davrli davriy nuqtasi deyiladi. $f^p(x) = x$ tenglikni qanoatlantiruvchi eng kichik musbat p soniga x nuqtaning asosiy davri deyiladi.*

Barcha qo'zg'almas va p davrli davriy nuqtalar to'plamini mos ravishda $Fix(f)$ va $Per_p(f)$ orqali belgilanadi.

Ushbu

$$x'_k = F_i(x_1, x_2, \ldots, x_m),\ k = 1, 2, \ldots, m, \quad (2)$$

nochiziqli

$$F : x = (x_1, x_2, ..., x_m) \in \mathbb{R}^m \to x' = F(x) = (x'_1, x'_2, ..., x'_m) \in \mathbb{R}^m$$

akslantirishni qaraylik, bu yerda $F_i : \mathbb{R}^m \to \mathbb{R},\ i = 1, \ldots, m$ uzluksiz differensial-lanuvchi bir qiymatli fuksiyalardir.

F akslantirish mos J_F Yakobi matritsasining xos qiymatlari chiziqli bo'lmagan dinamik sistemaning lokal xarakterini aniqlaydi.

3-**ta'rif.** *x^* nuqta F akslantirishning qo'zg'almas nuqtasi bo'lsin.*

- *agar F akslantirishning x^* nuqtadagi Yakobi matritsasi J_F birlik aylanada xos qiymatlarga ega bo'lmasa x^* giperbolik nuqta deyiladi;*
- *agar $J_F(x^*)$ Yakobi matritsaning barcha xos qiymatlarining absolyut qiymati 1 dan kichik bo'lsa, x^* nuqtaga tortuvchi qo'zg'almas nuqta deyiladi;*
- *agar $J_F(x^*)$ Yakobi matritsaning barcha xos qiymatlarining absolyut qiymati 1 dan katta bo'lsa, x^* nuqtaga itaruvchi qo'zg'almas nuqta deyiladi;*
- *qolgan barcha giberbolik nuqtalar uchun x^* egar nuqta deyiladi.*

Ushbu $t \in \{a, b\}$ va $0 < b < 1 < a$ lar uchun $f_t : [0,1] \to [0,1]$ funksiyani qaraylik:

$$f_t(x) = \begin{cases} (2x)^t & agar\ \ x \in \left[0, \frac{1}{2}\right], \\ 2x - 1 & agar\ \ x \in \left(\frac{1}{2}, 1\right]. \end{cases}$$

Har bir iteratsiya bosqichida mustaqil ravishda f_a ni ehtimol p_a bilan va f_b ni ehtimol $p_b = 1 - p_a$ bilan tanlash orqali hosil bo'lgan tasodifiy dinamik sistemani ko'rib chiqamiz.

1-teorema. Agar $ab \le 1$ va $p_a < p_b$ yoki $ab < 1$ va $p_a \le p_b$ bo'lsa, u holda shunday $C, c > 0$ sonlar topilib, barcha $n \ge 1$ uchun $\mathbb{E}(x_n(\omega)) \le Ce^{-cn}$ bajariladi.

Shuningdek, shunday $n_1:\Omega\to\mathbb{N}$ funksiya va $\bar{C}>0$ sonlari topilib, barcha $n>n_1(\omega)$ lar uchun $x_n(\omega)\le Ce^{-cn/2}$ va $\mathbb{P}\{\omega|n_1(\omega)>n\}\le\bar{C}e^{-cn/2}$ tengsizliklar bajariladi.

Dissertatsiyaning **“Gibbs o‘lchovlariga bog‘liq cheksiz o‘lchamli operatorning qo‘zg‘almas nuqtalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida cheksiz o‘lchamli operatorni aniqlaymiz va uni yagona qo‘zg‘almas nuqtaga ega bo‘lishi uchun yetarli topamiz. Bundan tashqari, cheksiz o‘lchamli operatorni muayyan shartlar asosida ikki o‘lchamli operatorga qisqartirib uning qo‘zg‘almas nuqtalarini topamiz va $\mathbb{R}^2_+$ ning bissektrisasidagi dinamikasini to‘liq tekshiramiz.

Quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$\ell^1_+=\left\{x=(x_1,x_2,...,x_n,...):\ \ x_i>0,\ \ \|x\|=\sum_{j=1}^{\infty}x_j<\infty\right\}.$$

Tartibi $k\ge 2$ bo‘lgan Keli daraxtida Hard-core (HC) modelining invariant Gibbs o‘lchovini tasvirlash uchun $F_0:\ell^1_+\to\ell^1_+$ operatorning qo‘zg’almas nuqtalarini o‘rganishimiz kerak. Bu F_0 operator quyidagicha aniqlangan,

$$F_0:\ \ x_i'=\lambda_i\left(\frac{1+\sum\limits_{j=1}^{\infty}a_{ij}x_j}{1+\sum\limits_{j=1}^{\infty}a_{1j}x_j}\right)^k,$$

bu yerda $k,i\in\mathbb{N},\ \lambda(\lambda_1,\lambda_2,...)\in\ell^1_+$ va $a_{ij}\in\{0,1\}$ berilgan parametrlar.

Biz quyida ixtiyoriy $j\in\mathbb{N}$ uchun $a_{1j}=1$ bo‘lgan holni qaraymiz. U holda,

$$F:\ \ x_i'=\lambda_i\left(\frac{1+\sum\limits_{j=1}^{\infty}a_{ij}x_j}{1+\|x\|}\right)^k, \qquad (3)$$

operator hosil bo‘ladi. Bu yerda $k,i\in\mathbb{N},\ \lambda_i>0.$

Aytaylik, $\lambda=(\lambda_1,\lambda_2,...,\lambda_n,...)\in\ell^1_+$ bo‘lsin. Quyidagi belgilash kiritamiz:

$$A_k=\left\{x\in\ell^1_+:\lambda_1+\frac{\|\lambda\|-\lambda_1}{(1+\|\lambda\|)^k}\le\|x\|\le\|\lambda\|\right\}.$$

2-teorema. *Ixtiyoriy $\lambda\in\ell^1_+$ uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli.*

1) $F:\ell^1_+\to\ell^1_+$ operator uchun A_k invariant to‘plam bo‘ladi, ya’ni $F(A_k)\subset A_k$.

2) Shunday $\hat{\lambda}>0$, topilib, ixtiyoriy $\|\lambda\|<\hat{\lambda}$ uchun $F:A_k\to A_k$ qisqartirib *akslantirish bo'ladi. Xususan, (3) operator* z^* *yagona qo'zg'almas nuqtaga ega bo'lib, ixtiyoriy* $z^{(0)} \in A_k$ *uchun* $\lim_{n\to\infty} F^n\left(z^{(0)}\right) = z^*$ *bo'ladi.*

Quyida yagona qo'zg'almas nuqtaga ega bo'lgan F operatorga doir bir nechta misollar keltirib o'tamiz.

1) Aytaylik $k=2$ bo'lsin. Barcha i, j lar uchun $a_{1j}=1, a_{i1}=1$ va qolgan $a_{ij}=0$ bo'lsa, u holda quyidagi operator hosil bo'ladi

$$x_1'=\lambda_1,\ x_i'=\lambda_i\left(\frac{1+\lambda_1}{1+\|x\|}\right)^2, i\ge 2.$$

2) Agar $a_{11}=1$, $a_{i1}=0,(i\ge 2)$, va barcha $j>1$ va ixtiyoriy i lar uchun $a_{ij}=1$ bo'lsa, u holda operator quyidagi ko'rinishga keladi

$$x_1'=\lambda_1,\ x_i'=\lambda_i\left(\frac{1+\|x\|-\lambda_1}{1+\|x\|}\right)^2, i\ge 2.$$

Quyida muayyan shartlar ostida cheksiz o'lchamli operatorni o'rganishni ikki o'lchamli operatorni tadqiq qilishga keltirish mumkinligini ko'rsatamiz.

Aytaylik, $a_{1j}=1,\ (j\ge 1),\ a_{i1}=0,\ (i>1),\ a_{22}=1$ bo'lsin. Quyidagi $E_1=E_1(\vec{a})=\{i:\ a_{2i}=1\}$ va $E_2=\{i>2 \mid i\in E_1^c\}$ to'plamlarni aniqlaymiz. Ma'lumki: $E_1\bigcup E_2=N_1=\mathbb{N}\setminus\{1\}$, $\|x\|=\sum_{j\ge 1}x_j=x_1+\sum_{j\in E_1}x_j+\sum_{j\in E_2}x_j$, $E_1\ne\varnothing$ va $E_2\ne\varnothing$.

Quyidagi sinfni qaraymiz:

$$F:\begin{cases} x_i'=\lambda_i\left(\dfrac{1+\sum_{j\in E_1}x_j}{1+\lambda_1+\sum_{j\in E_1}x_j+\sum_{j\in E_2}x_j}\right)^2, & agar\ \ i\in E_1,\\ x_i'=\lambda_i\left(\dfrac{1+\sum_{j\in E_1}x_j}{1+\lambda_1+\sum_{j\in E_1}x_j+\sum_{j\in E_2}x_j}\right)^2, & agar\ \ i\in E_2.\end{cases}$$

Bu yerda $E_1\ne\varnothing$, $E_2\ne\varnothing$ bo'lishi muhim shart hisoblanadi. $E_1\ne\varnothing$ emasligi aniq chunki bizda $a_{22}=1$. $E_2=\varnothing$ bo'lsa operator yagona qo'zg'almas nuqtaga ega bo'ladi. Bu shartlar asosida operator quyidagi ko'rinishga keladi:

$$x_1'=\lambda_1,\ \ x_i'=\lambda_i\left(\frac{1+\sum_{j\in E_1}x_j}{1+\lambda_1+\sum_{j\in E_1}x_j+\sum_{j\in E_2}x_j}\right)^2,\ \ agar\ \ \ i\in E_1,$$

$$x_i'=\lambda_i\left(\frac{1+\sum_{j\in E_2}x_j}{1+\lambda_1+\sum_{j\in E_1}x_j+\sum_{j\in E_2}x_j}\right)^2,\ \ agar\ \ \ i\in E_2.$$

Soddalik uchun quyidagi holatini qaraymiz: $a_{1j}=1\ ,(j\geq 1)$ va $a_{i1}=0,(i>1)$ qolgan barcha i va j lar uchun

$$a_{ij}=\begin{cases}1, & agar\quad i+j\quad juft,\\ 0, & agar\quad i+j\quad toq.\end{cases}\tag{4}$$

U holda operator quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$F_1: x'_{2n}=\lambda_{2n}\left(\frac{1+\sum_{j=1}^{\infty}x_{2j}}{1+\|x\|}\right)^2, x'_{2n+1}=\lambda_{2n+1}\left(\frac{1+\sum_{j=1}^{\infty}x_{2j+1}}{1+\|x\|}\right)^2, n\geq 1.$$

Ushbu $\lambda_1>0$ va $L_1,L_2>0$ sonlar uchun $W:\ \mathbb{R}_+^2\to\mathbb{R}_+^2$ ikki o‘lchamli operatorni qaraylik,

$$W\ : x'=L_1\left(\frac{1+x}{1+\lambda_1+x+y}\right)^2,\ y'=L_2\left(\frac{1+y}{1+\lambda_1+x+y}\right)^2.\tag{5}$$

1-lemma. *F_1 operatorning yordamida hosil qilingan cheksiz o‘lchamli dinamik sistema W operatorning ikki o‘lchamli dinamikasi orqali to‘liq ifodalanadi.*

Yuqoridagi lemmaga ko‘ra, W dinamikasini tadqiq qilish yetarli. Avvalo W operatorning qo‘zg‘almas nuqtalarini o‘rganamiz.

Quyidagi to‘plamlarni aniqlaymiz:

$$M_-=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2: x<y\},$$
$$M_0=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2: x=y\},$$
$$M_+=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2: x>y\}.$$

2-lemma. *Agar $L_1=L_2=L$ bo‘lsa, u holda $M_\varepsilon,\varepsilon\in\{-,0,+\}$ to‘plamlar W operator uchun invariant bo‘ladi, ya’ni $W(M_\varepsilon)\subset M_\varepsilon$.*

M_0 to‘plamda operatorning ko‘rinishi quyidagicha:

$$x'=f(x):=L\left(\frac{1+x}{1+\lambda_1+2x}\right)^2.$$

Quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$\hat{L}_1=\frac{2\lambda_1^2+76\lambda_1-142-(2\lambda_1-34)\sqrt{\lambda_1^2-18\lambda_1+17}}{16},$$

$$\hat{L}_2=\frac{2\lambda_1^2+76\lambda_1-142+(2\lambda_1-34)\sqrt{\lambda_1^2-18\lambda_1+17}}{16}.$$

M_0 to‘plamda operatorning qo‘zg‘almas nuqtalar soni quyidagicha bo‘ladi.

1) Agar $\lambda_1 \in (0,17], L > 0$ yoki $\lambda_1 > 17, L \notin [\hat{L}_1, \hat{L}_2]$ bo‘lsa, u holda $f(x)$ yagona x_1^* qo‘zg’almas nuqtaga ega;

2) Agar $\lambda_1 > 17$ va $L = \hat{L}_1$ yoki $L = \hat{L}_2$ bo‘lsa, u holda $f(x)$ ikkita qo‘zg‘almas $x_1^*, x_2^* \ (x_1^* < x_2^*)$ nuqtaga ega bo‘ladi;

3) Agar $\lambda_1 > 17, L \in (\hat{L}_1, \hat{L}_2)$ bo‘lsa, u holda $f(x)$ uchta qo‘zg‘almas $x_1^*, x_2^*, x_3^* \ (x_1^* < x_2^* < x_3^*)$ nuqtaga ega.

Agar $\lambda_1 = 1$ bo‘lsa, $f(x) = \dfrac{L}{4}$ bo‘ladi. Shuning uchun ham biz $\lambda_1 \neq 1$ holatni qaraymiz.

3-lemma. *Qo‘zg‘almas nuqtalarni tiplari quyidagicha*

1) *Yagona qo‘zg‘almas nuqta*

$$x_1^* = \begin{cases} tortuvchi, \quad agar \quad \lambda_1 > 17,\ L \notin [\hat{L}_1, \hat{L}_2], \\ egar, \quad agar \quad \lambda_1 = 17,\ L = 108, \\ tortuvchi, \quad agar \quad \lambda_1 = 17,\ L \neq 108\ \ yoki\ \lambda_1 \in (0,1) \cup (1,17). \end{cases}$$

2) *Agar $\lambda_1 > 17$ va $L = \hat{L}_1$ ($L = \hat{L}_2$ mos ravishda) bo‘lsa, u holda $f(x)$ funksiya ikkita qo‘zg‘almas nuqtaga ega $x_1^* < x_2^*$ va x_1^* egar va x_2^* tortuvchi (mos ravishda x_1^* tortuvchi va x_2^* egar) bo‘ladi.*

3) *Agar $\lambda_1 > 17, L \in (\hat{L}_1, \hat{L}_2)$ bo‘lsa, u holda $f(x)$ funksiya uchta $x_1^* < x_2^* < x_3^*$ qo‘zg‘almas nuqtalarga ega. Bundan tashqari x_1^* va x_3^* tortuvchi va x_2^* esa itaruvchi bo‘ladi.*

4-lemma. *Invariant to‘plam M_0 da (5) operator davriy nuqtalarga ega emas.*

3-teorema. *Quyidagi tasdiqlar o‘rinli.*

1) *Agar $\lambda_1 \in (0,17],\ L > 0$ yoki $\lambda_1 > 17,\ L \notin [\hat{L}_1, \hat{L}_2]$ bo‘lsa, u holda ixtiyoriy $x \in (0, +\infty)$ uchun quyidagi tenglik o‘rinli: $\lim\limits_{n\to\infty} f^n(x) = x_1^*$.*

2) *Agar $\lambda_1 > 17$ va $L = \hat{L}_1$ (mos ravishda $L = \hat{L}_2$) bo‘lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty} f^n(x) = \begin{cases} x_1^*, \quad if \quad x \in (0, x_1^*], \\ x_2^*, \quad if \quad x \in (x_1^*, +\infty), \end{cases}$$

$$\left(mos\,ravishda \quad \lim_{n\to\infty} f^n(x) = \begin{cases} x_1^*, & if \quad x \in (0, x_2^*), \\ x_2^*, & if \quad x \in [x_2^*, +\infty), \end{cases} \right).$$

3) Agar $\lambda_1 > 17,\ L \in \left(\hat{L}_1, \hat{L}_2\right)$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty} f^n(x) = \begin{cases} x_1^*, & if \quad x \in (0, x_2^*), \\ x_2^*, & if \quad x = x_2^*, \\ x_3^*, & if \quad x \in (x_2^*, +\infty). \end{cases}$$

Dissertatsiyaning **"Cheksiz o'lchamli no-chiziqli operatorning dinamik sistemalari"** deb nomlangan uchinchi bobida, ikki o'lchamli operator hosil qilgan dinamik sistema tadqiq qilingan. Bundan tashqari dinamikani o'rganish maqsadida tartib tushunchasi kiritiladi va ikki o'lchamli operatorning qo'zg'almas nuqtalariga mos keluvchi Gibbs o'lchovlari soni haqidagi teorema keltiriladi.

Invariant to'plam $\mathbb{R}_+^2 \setminus M_0$ dagi W operatorni qaraymiz. Quyidagi $A_{i,j}$ to'plamlardagi i soni M_0 dagi qo'zg'almas nuqtalar sonini, j soni esa $\mathbb{R}_+^2 \setminus M_0$ dagi qo'zg'almas nuqtalar sonini ifodalaydi.

$$A_{1,0} = \left\{ (\lambda_1, L) : L \le \frac{(\lambda_1+3)^2}{4},\ 0 < \lambda_1 \le 5 \right\} \cup \left\{ (\lambda_1, L) : L \le 4(\lambda_1 - 1),\ \lambda_1 > 5 \right\},$$

$$A_{1,2} = \left\{ (\lambda_1, L) : L > \frac{(\lambda_1+3)^2}{4},\ 0 < \lambda_1 \le 17 \right\} \cup$$

$$\cup \left\{ (\lambda_1, L) : \frac{(\lambda_1+3)^2}{4} \le L < \hat{L}_1,\ 17 < \lambda_1 \le 9 + 8\sqrt{2} \right\} \cup$$

$$\cup \left\{ (\lambda_1, L) : L > \hat{L}_2,\ \lambda_1 > 17 \right\} \cup \left\{ (\lambda_1, L) : L = 4(\lambda_1 - 1),\ \lambda_1 > 5 \right\},$$

$$A_{2,2} = \left\{ (\lambda_1, L) : L = \hat{L}_2,\ \lambda_1 > 17 \right\} \cup \left\{ (\lambda_1, L) : L = \hat{L}_1,\ 17 < \lambda_1 < 9 + 8\sqrt{2} \right\},$$

$$A_{1,4} = \left\{ (\lambda_1, L) : 4(\lambda_1 - 1) < L < \frac{(\lambda_1+3)^2}{4},\ 5 < \lambda_1 \le 9 + 8\sqrt{2} \right\} \cup$$

$$\cup \left\{ (\lambda_1, L) : 4(\lambda_1 - 1) < L < \hat{L}_1,\ \lambda_1 > 9 + 8\sqrt{2} \right\},$$

$$A_{3,2}=\left\{(\lambda_1,L):\hat{L}_1<L<\hat{L}_2,\,17<\lambda_1\le 9+8\sqrt{2}\right\}\cup$$

$$\cup\left\{(\lambda_1,L):\frac{(\lambda_1+3)^2}{4}<L<\hat{L}_2,\,\lambda_1>9+8\sqrt{2}\right\},$$

$$A_{2,4}=\left\{(\lambda_1,L):L=\hat{L}_1,\,\lambda_1>9+8\sqrt{2}\right\}$$

$$A_{3,4}=\left\{(\lambda_1,L):\hat{L}_1<L<\frac{(\lambda_1+3)^2}{4},\,\lambda_1>9+8\sqrt{2}\right\}.$$

5-lemma. *Quyidagi tasdiqlar o‘rinli*

1) *Agar* $(\lambda_1,L)\in A_{1,0}$ *bo‘lsa, u holda* $Fix(W)=\{p_1^*\}$,

2) *Agar* $(\lambda_1,L)\in A_{1,2}$ *bo‘lsa, u holda* $Fix(W)=\{p_1^*,p_1,p_2\}$,

3) *Agar* $(\lambda_1,L)\in A_{2,2}$ *bo‘lsa, u holda* $Fix(W)=\{p_1^*,p_2^*,p_1,p_2\}$,

4) *Agar* $(\lambda_1,L)\in A_{1,4}$ *bo‘lsa, u holda* $Fix(W)=\{p_1^*,p_1,p_2,p_3,p_4\}$,

5) *Agar* $(\lambda_1,L)\in A_{3,2}$ *bo‘lsa, u holda* $Fix(W)=\{p_1^*,p_2^*,p_3^*,p_1,p_2\}$,

6) *Agar* $(\lambda_1,L)\in A_{2,4}$ *bo‘lsa, u holda* $Fix(W)=\{p_1^*,p_2^*,p_1,p_2,p_3,p_4\}$,

7) *Agar* $(\lambda_1,L)\in A_{3,4}$ *bo‘lsa, u holda* $Fix(W)=\{p_1^*,p_2^*,p_3^*,p_1,p_2,p_3,p_4\}$,

bu yerda $p_i^*=(x_i^*,x_i^*),\quad i=1,2,3,$

$$p_1=(x_1,x_2),\;p_2=(x_2,x_1),\;p_3=(x_3,x_4),\;p_4=(x_4,x_3),$$

$$x_1=\frac{\sqrt{L}+\sqrt{L-4(\lambda_1-1)}+\sqrt{2L-4\lambda_1+2\sqrt{L^2-4(\lambda_1-1)L}}}{2},$$

$$x_2=\frac{\sqrt{L}+\sqrt{L-4(\lambda_1-1)}-\sqrt{2L-4\lambda_1+2\sqrt{L^2-4(\lambda_1-1)L}}}{2},$$

$$x_3=\frac{\sqrt{L}-\sqrt{L-4(\lambda_1-1)}+\sqrt{2L-4\lambda_1-2\sqrt{L^2-4(\lambda_1-1)L}}}{2},$$

$$x_4=\frac{\sqrt{L}-\sqrt{L-4(\lambda_1-1)}-\sqrt{2L-4\lambda_1-2\sqrt{L^2-4(\lambda_1-1)L}}}{2}.$$

4-teorema. Agar $L_1=L_2=L$ *bo‘lsa, u holda* F_1 *operatorning qo‘zg‘almas nuqtalari quyidagicha:*

$$Fix(F)=\begin{cases}\{P_1\}, & if\ \ (\lambda_1,L)\in A_{1,0}\\ \{P_1,P_4,P_5\}, & if\ \ (\lambda_1,L)\in A_{1,2}\\ \{P_1,P_2,P_4,P_5\}, & if\ \ (\lambda_1,L)\in A_{2,2}\\ \{P_1,P_4,P_5,P_6,P_7\}, & if\ \ (\lambda_1,L)\in A_{1,4}\\ \{P_1,P_2,P_3,P_4,P_5\}, & if\ \ (\lambda_1,L)\in A_{3,2}\\ \{P_1,P_2,P_4,P_5,P_6,P_7\}, & if\ \ (\lambda_1,L)\in A_{2,4}\\ \{P_1,P_2,P_3,P_4,P_5,P_6,P_7\}, & if\ \ (\lambda_1,L)\in A_{3,4}\end{cases}$$

bu yerda

$$P_1=\left(\lambda_1,\frac{x_1^*}{L}\lambda_2,\frac{x_1^*}{L}\lambda_3,\frac{x_1^*}{L}\lambda_4,...\right),P_2=\left(\lambda_1,\frac{x_2^*}{L}\lambda_2,\frac{x_2^*}{L}\lambda_3,\frac{x_2^*}{L}\lambda_4,...\right),$$

$$P_3=\left(\lambda_1,\frac{x_3^*}{L}\lambda_2,\frac{x_3^*}{L}\lambda_3,\frac{x_3^*}{L}\lambda_4,...\right),P_4=\left(\lambda_1,\frac{x_2}{L}\lambda_2,\frac{x_1}{L}\lambda_3,\frac{x_2}{L}\lambda_4,...\right)$$

$$P_5=\left(\lambda_1,\frac{x_1}{L}\lambda_2,\frac{x_2}{L}\lambda_3,\frac{x_1}{L}\lambda_4,...\right),P_6=\left(\lambda_1,\frac{x_4}{L}\lambda_2,\frac{x_3}{L}\lambda_3,\frac{x_4}{L}\lambda_4,...\right)$$

$$P_7=\left(\lambda_1,\frac{x_3}{L}\lambda_2,\frac{x_4}{L}\lambda_3,\frac{x_3}{L}\lambda_4,...\right).$$

$\mathbb{R}^2$ da birinchi kvadrantda Shimoli-Sharqiy (NE) tartib quyidagicha aniqlanadi: agar $x_1\le x_2$ va $y_1\le y_2$ bo‘lsa, u holda $(x_1,y_1)\preceq_{NE}(x_2,y_2)$. Janubi-Sharqiy (SE) tartib esa quyidagicha aniqlanadi: agar $x_1\le x_2$ va $y_1\ge y_2$ bo‘lsa, u holda $(x_1,y_1)\preceq_{SE}(x_2,y_2)$. $\mathbb{R}_+^2$ ni quyidagi to‘plamlarga ajratamiz: $\mathbb{R}_+^2=A_{SE}^{<}\cup A_{SE}^{>}\cup A_{NE}^{<}\cup A_{NE}^{>}$. Bu to‘plamlar quyidagicha:

$$A_{SE}^{<}=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2:\ x\ge\psi(y),\ y\le\psi(x)\},$$
$$A_{SE}^{>}=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2:\ x\le\psi(y),\ y\ge\psi(x)\},$$
$$A_{NE}^{<}=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2:\ x\le\psi(y),\ y\le\psi(x)\},$$
$$A_{NE}^{>}=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2:\ x\ge\psi(y),\ y\ge\psi(x)\},$$

bu yerda $\psi(x)=\sqrt{L}\left(\frac{1}{\sqrt{x}}+\sqrt{x}\right)-(1+\lambda_1+x)$.

1-tasdiq. $\mathbb{R}_+^2$ *ning qism to‘plamlari uchun quyidagilar o‘rinlidir:*

$$A_{SE}^{<}=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2:\ (x,y)\preceq_{SE}W(x,y)\},\ A_{SE}^{>}=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2:\ W(x,y)\preceq_{SE}(x,y)\},$$

$$Fix(W)=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2:\ x=\psi(y),\ y=\psi(x)\},$$

$$A_{NE}^{<}=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2:\ (x,y)\preceq_{NE}W(x,y)\},\ A_{NE}^{<}=\{(x,y)\in\mathbb{R}_+^2:\ W(x,y)\preceq_{NE}(x,y)\}.$$

$p\in Fix(W)$ qo‘zg‘almas nuqta uchun biz quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$B^{<}(p)=\{(x,y)\in M_{-}:\ (x,y)\prec_{SE}W(x,y)\preceq_{SE}p\},$$
$$B^{>}(p)=\{(x,y)\in M_{-}:\ p\ \preceq_{SE}W(x,y)\prec_{SE}(x,y)\},$$
$$R^{>}(p)=\{(x,y)\in M_{-}:\ W(x,y)\prec_{SE}(x,y)\preceq_{SE}\ p\ \},$$
$$R^{>}(p)=\{(x,y)\in M_{-}:\ p\ \preceq_{SE}(x,y)\prec_{SE}W(x,y)\}.$$

Yuqoridagilardan foydalanib quyidagicha teorema olamiz.

Boshlang‘ich nuqta $x^{(0)}=\left(x_1^{(0)},x_2^{(0)},x_3^{(0)},...\right)$ uchun quyidagicha belgilaymiz:

$$v_1^{(0)}=\sum_{j=1}^{\infty}x_{2j+1}^{(0)},v_2^{(0)}=\sum_{j=1}^{\infty}x_{2j}^{(0)} \tag{6}$$

5-teorema. *Boshlang‘ich nuqta* $v^{(0)}\in\mathbb{R}_+^2\setminus M_+$ *uchun quyidagi tasdiq o‘rinli*

$$\lim_{n\to\infty}W^n\left(v^{(0)}\right)=$$

$$\begin{cases} p_1^*, \quad agar \quad (\lambda_1,L)\in A_{1,0} \\ p_2, \quad agar \quad (\lambda_1,L)\in A_{1,2}, \qquad \forall v^{(0)}\in M_{-} \\ p_2,\ agar\ (\lambda_1,L)\in A_{1,4},\ \forall v^{(0)}\in\left(B^{<}(p_2)\cup B^{>}(p_2)\right)\cup\left(R^{<}(p_4)\cup R^{>}(p_4)\right); \\ p_4,\ agar\ (\lambda_1,L)\in A_{1,4},\ \forall v^{(0)}\in\left(B^{<}(p_4)\cup B^{>}(p_4)\right)\cup\left(R^{<}(p_2)\cup R^{>}(p_2)\right); \\ p,\ agar\ (\lambda_1,L)\in\bigcup_{\substack{i=2,3\\ j=2,4}}A_{i,j}, \qquad p\in Fix(W), \quad \forall v^{(0)}\in\left(B^{<}(p)\cup B^{>}(p)\right). \end{cases}$$

6-eorema. *Ixtiyoriy boshlang‘ich* $x^{(0)}=\left(x_1^{(0)},x_2^{(0)},...\right)\in\ell_+^1$ *uchun*

$$\lim_{m\to\infty}W^m\left(v_1^{(0)},v_2^{(0)}\right)=(a,b)=p\in Fix(W)$$

bo‘lsa, u holda (6)

$$\lim_{m\to\infty}F^m\left(x^{(0)}\right)=\frac{1}{L}(\lambda_1L,\lambda_2b,\lambda_3a,\lambda_4b,...)\ \text{bo‘ladi.}$$

Uchlari $\mathbb{N}$ natural sonlar to‘plamida bo‘lgan cheksiz G grafni qaraylik. Agar σ konfiguratsiya va x,y qo‘shni uchlar uchun $\{\sigma(x),\sigma(y)\}$ juftlik G grafning qirrasi bo‘lsa, u holda konfiguratsiya G-joiz konfiguratsiya deyiladi.

Barcha joiz konfiguratsiyalar oilasi Ω^G ko‘rinishda belgilanadi. $\lambda:G\mapsto\mathbb{R}_+$ chegaralangan funksiya berilgan bo‘lsin va λ_i lar λ funksiyaning $i\in\mathbb{N}$ uchdagi “faolligi” deyiladi.

Berilgan G graf va λ ga mos HC-modeli quyidagicha aniqlanadi

$$H_G^{\lambda}(\sigma)=\begin{cases}\sum_{x\in V}\ln\lambda_{\sigma(x)}, & if \quad \sigma\in\Omega^G, \\ +\infty, & if \quad \sigma\notin\Omega^G.\end{cases} \tag{7}$$

4-ta'rif. *1) Ushbu* $l=\left\{l_{xy}\right\}_{\langle x,y\rangle\in L}$, $l_{xy}=\left\{l_{xy}(i):\ i\in\mathbb{N}\right\}\in(0,\infty)^{\mathbb{N}}$ *vektorlar oilasi ixtiyoriy* $\langle x,y\rangle\in L$ *qirra va barcha* $i\in\mathbb{N}$ *uchun*

$$l_{xy}(i)=c_{xy}\prod_{z\in\partial x\setminus y}\sum_{j\in\mathbb{N}}a_{ij}\lambda_j l_{zx}(j)$$

tenglikni qanoatlantiradigan shunday $c_{xy}>0$ *mavjud bo'lsa, u holda (7) model uchun chegaraviy qonun deyiladi.*

2) Agar l *chegaraviy qonun va barcha* $x\in V$ *uchlar uchun*

$$\sum_{i\in\mathbb{N}}\left(\prod_{z\in\partial x}\sum_{j\in\mathbb{N}}a_{ij}\lambda_j l_{zx}(j)\right)<\infty$$

munosabat o'rinli bo'lsa, u holda ushbu chegaraviy qonun normallashgan deyiladi.

6-lemma. *Agar* $\lambda\in\ell_{+}^{1}$ *bo'lsa, u holda* F_1 *shakldagi har qanday yechim nomallashgan bo'ladi.*

Yuqoridagilardan foydalangan holda quyidagi Gibbs o'lchovlar soni haqidagi teorema ega bo'lamiz.

7-teorema. *Agar* $\mathcal{N}_G$ *-(7) Gamiltonian uchun translatsion-invariant Gibbs o'lchovlarining soni bo'lsa va u (4) bilan aniqlangan* G *grafga mos kelsa, u holda*

$$\mathcal{N}_G=\begin{cases}1, & agar\ (\lambda_1,L)\in A_{1,0},\\ 3, & agar\ (\lambda_1,L)\in A_{1,2},\\ 4, & agar\ (\lambda_1,L)\in A_{2,2},\\ 5, & agar\ (\lambda_1,L)\in A_{1,4},\\ 5, & agar\ (\lambda_1,L)\in A_{3,2},\\ 6, & agar\ (\lambda_1,L)\in A_{2,4},\\ 7, & agar\ (\lambda_1,L)\in A_{3,4}.\end{cases}$$

XULOSA

Dissertatsiya diskret vaqtli cheksiz o'lchamli operatorlar dinamik sistemalarni tavsiflashga bag'ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Diskret vaqtli cheksiz o'lchamli ratsional operator yagona qo'zg'almas nuqtaga ega bo'lishi uchun parametrlarga shart topilgan.
2. Cheksiz o'lchamli operatorni dinamikasini o'rganish masalasini ba'zi shartlar asosida ikki o'lchamli operatorni dinamikasini o'rganish masalasiga keltirilgan.
3. Cheksiz o'lchamli operatorni ikki o'lchamli operatorga keltirish jarayonida cheksiz o'lchamli operatorni bitta ikki o'lchamli operatorga keltirish va natijani yana cheksiz o'lchamli operatorga qaytarish imkoni yaratilgan.

4. Cheksiz o‘lchamli operator uchun olingan natijalar Hard-Core modeli uchun translatsion Gibbs o‘lchovlariga tadbiqi ko‘rsatilgan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I. ROMANOVSKIY

INSTITUTE OF MATHEMATICS

OLIMOV UMRBEK RASHIDOVICH

DISCRETE-TIME INFINITE-DIMENSIONAL RATIONAL DYNAMICAL SYSTEMS

01.01.01-Mathematical analysis

ABSTRACT OF THESIS OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT-2025

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the of Ministers of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number №B2024.2.PhD/FM1050.

Thesis has been prepared at Institute of Mathematics.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz/.

Scientific supervisor:	**Rozikov Utkir Abdulloevich** doctor of physical and mathematical sciences, academician
Official opponents:	**Ganikhodjaev Nosir Nabiyevich** doctor of physical and mathematical sciences, professor
	Dzhalilov Akhtam Abdurakhmanovich doctor of physical and mathematical sciences, professor
Leading organization:	**The National University of Uzbekistan**

Defense will take place " 27 " May 2025 at 16:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy. (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy (is registered № 202). (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of the thesis sent out on " 13 " May 2025 year
(Mailing report № 2 on " 13 " May 2025 year)

S.A. Mirakhmedov
Deputy Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Professor

J.K. Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

U.U. Jamilov
Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the dissertation. In the world, numerous scientific and applied research works are often directed toward the study of infinite-dimensional rational dynamic systems. The importance of the theory of dynamic systems is in evaluating the future states of a system based on its current state, playing a significant role in solving problems in statistical mechanics, physics, biology, medicine, economics, and other fields. This helps people understand complex systems and make optimal decisions. It should be noted that dynamic systems are typically represented by difference equations, differential equations, and differential-difference equations. One of the main objects of research in statistical mechanics and quantum physics is the dynamic systems of infinite-dimensional rational operators. Additionally, infinite-dimensional rational dynamic systems play a crucial role in physics for modeling geometric interactions between particles and studying the thermodynamic properties of systems. Therefore, the research of dynamic systems of infinite-dimensional rational mappings remains one of the important and urgent tasks in the theory of dynamic systems.

Currently, the theory of infinite-dimensional rational dynamic systems is used as the main tool in understanding the nature of many practical problems, analyzing them, and finding optimal solutions. Specifically, in dynamic systems theory, problems such as describing the set of limit points of the trajectory, determining the existence of fixed and periodic points and their types, finding invariant sets, checking for the occurrence of bifurcations, and studying whether the system is stable or chaotic are widely used in the analysis of many practical issues. In this regard, the dynamics of discrete-time infinite-dimensional rational operators are considered targeted scientific studies for analyzing the temporal evolution of systems in various fields. In recent years, the fact that seven of the recipients of the prestigious Fields Medal, awarded for significant scientific results in mathematics, are specialists in the theory of dynamic systems indicates the relevance of this field.

